



ILK YOSHDAGI BOLALARNI MEHNAT VA O'QISHGA O'RGATISHDALARBIYAVIY ISHLAR VA TARBIYACHINING ROLI

Bozorova Norgul Orzi qizi

Buxoro viloyati Qorakul tumani

13-DMTT 1-toifali tarbiyachi

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim – tarbiya jarayonida shunday islohatlar amalga oshirilmoqdaki uni ko'z bilan ko'rib qalb bilan his etish kerak O'sib, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, bugungi kunning yoshlari ertangi kun davlatimizni ravnaqiga xizmat qiladigan uning buyukligini yanada yuqoriga ko'taradigan, ota-bobolarimiz tomonidan bizlarga qoldirgan ulkan boy ma'naviy merosini boyitib, sayqal berib, takomillashtirib kelgusi avlodlarga yetkazib beradigan shaxs qilib tarbiyalash kerak.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, shaxs qilib voyaga yetkazishda eng muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham biz milliy – ma'naviy qadriyatlarnimizni odobnoma darslari orqali o'quvchilar ongiga singdirishimiz o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrlarni olg'a surib, undan keng foydalanishimiz lozimligini ta'kidlaymiz.

Bugungi kunda ta'lim sifatlarini oshirish va ta'lim sohasini yanada rivojlantirish barcha pedagoglar oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya masalalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini olib kirish orqali o'quvchilar bilimini yanada rivojlantirish ularning dunyoqarashini oshirishga kata e'tibor qaratmoqda.



Tarbiyaviy tadbirlar orqali ular ongida kasb-hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish va mehnat ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi umumbashariy kadriyatlarga asoslangan yuksak manaviy axloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o'z vatani va xalqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim."Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "madaniy, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashkari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish" ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yaxshilash, uning tuzilmasi va mazmun - mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Agar, yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakamiga baxtsizlikka, hatto, halokatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir qatorda oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat berilgan. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va, aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu holda maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi.

Demak, oila va bog'cha hamkorligi o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli mehnat umuminsoniy, milliy, moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizi hisoblanadi. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o'рни beqiyosdir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin. Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.



Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Oilada mehnat tarbiyasining dastlabki unsurlari qo'llaniladi. Bola muayyan yoshga to'lgach, kattalarga yordamlashadi, o'z imkoniyatlarini anglab yetadi va o'quv (ta'lim) mehnatiga muntazam tayyorlanadi.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari:

1. Bolalar mehnatining o'quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog'liqligi;
2. Ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o'quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo'shib olib borilishi;
3. Mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo'ldan kela olishi;
4. Mehnat faoliyatining majburiyligi va vijdoniyligi;
5. Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo'shib olib borish.

Mehnatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi, mehnat ahillari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Mehnat tarbiyasining bosh g'oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mehnat, mehnat tarbiyasining ahamiyati bolaning hayotida, uning jisomanan, ma'nan tarbiya topishida, hamda yuksak kamolotga erishishida beqiyosdir. Har qanday tarbiya uchun poydevor eng avval oilada barpo qilinarkan, mehnat tarbiyasi ham bolada o'z uyida uy yumushlarida oila a'zolariga ko'maklashishidan boshlab rivojlanib boradi. Shu orqali bolada mehnatga nisbatan muhabbat, kelajak uchun esa ko'nikma va malaka hosil bo'ladi. Keyinchalik ta'lim dargohlarida, ya'ni bog'cha, maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida mehnat tarbiyasi bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi. Bu esa bolani uning jismoniy, aqliy



qobiliyatiga, qiziqish va imkoniyatiga qarab kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – 64 b
2. O'rta maktab didaktikasi. - M., 1982. - Ch
3. Maxmutov M.I. Zamonaviy dars - M., 1985 yil
4. Ilyin E. N. Talabaga yo'l. - M., 1988 yil
5. Shevchenko S.D. Maktab darsi: Hammaga qanday o'rgatish kerak. - M., 1990 yil
6. Kondratenkov A.E. O'qituvchining ishi va iste'dodi. - M., 1989 yil
7. Volkov IP Maktab o'quvchilarini ijodkorlik bilan tanishtirish - M., 1982yil
8. Yakovlev A.M., Sohor A.M. Maktabda darsning usullari va usullari- M., 1985 yil
9. Fridman L. M. Pedagogik tajriba psixolog nazarida. - M., 1987 yil
10. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017
11. J. Hasanboyev, X.A. To'raqulov, I.Sh. Alqarov, N.O'. Usmanov. Pedagogika, Toshkent-2011
12. X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi, Toshkent-2008
13. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi) Toshkent-2010 (Professor M.X To'xtaxodjayevning umumiy tahriri ostida)